International

scientific and practical conference

DECEMBER 6
2024

2024



STDF

Science technology& Digital finance

Google Scholar

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

Scientific journal of Science technology & Digital finance

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic

(December 6, 2024)

(Part 1)

Jizzakh-2024

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic – Jizzahk: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, December 6, 2024, 450 pp.

Editors in charge: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O'ralov A.I.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

O‘ZBEKISTONDA “YASHIL IQTISODIYOT” NI RIVOJLANTIRISH SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI



Rajabaliyeva Iroda Alisherovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti stajor-assistent o‘qituvchisi
irodaalisherovna820@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bugungi kundagi Mamlakat iqtisodiyoti hamda ishlab chiqarishi natijasida yuzaga keladigan ekologik xavflarni va tabiatning yemirilib ketishini sezilarli darajada kamaytirilishi uchun “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish hamda uning afzalliklari yoritib beriladi, shu bilan bir qatorda yangi O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning o‘rni, ahamiyati, barqaror rivojlantirish yo‘llari, hamda mavjud muammolarni bartaraf etish usullari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Yashil iqtisodiyot,ekologiya, atrof-muhit, tabiat, ekologik muammolar, qayta tiklanadigan energiya, yashil kredit, yashil obligatsiyalar.

Аннотация: В статье освещен переход к «зеленой экономике» и ее преимущества с целью значительного снижения экологических рисков и деградации природы, вызванных экономикой и производством страны сегодня, а также роль зеленой экономики в новом Узбекистане рассмотрены значение, пути устойчивого развития и методы преодоления существующих проблем.

Ключевые слова: Зеленая экономика, экология, окружающая среда, природа, экологические проблемы, возобновляемые источники энергии, зеленый кредит, зеленые облигации.

Abstract: The article highlights the transition to a “green economy” and its advantages in order to significantly reduce the ecological risks and degradation of nature caused by the country’s economy and production today, as well as the role of the green economy in the new Uzbekistan, importance, ways of sustainable development, and methods of overcoming existing problems are considered.

Key words: Green economy, ecology, environment, nature, ecological problems, renewable energy, green credit, green bonds.

Kirish. Biz bilamizki so‘nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar O‘zbekistonning bozor islohotlarining navbatdagi bosqichiga o‘tishi uchun qulay sharoit yaratdi. Iqtisodiy islohotlar yanada “yashil” bo‘lib, iqtisodiyot barqaror bo‘lsa, ushbu jarayon O‘zbekiston uchun yanada foydaliroq kechishi mumkin. Yashil iqtisodiyot bu sof yoki “yashil” texnologiyalarga asoslangan ekologik toza mahsulotlarni yaratishga qaratilgan rivojlanishning yangi bosqichi bo‘lib tabiatga yordam beradigan va foyda keltiradigan yangi texnologiyalar, eko tizimlarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari bu tizim mamlakat tabiatini yaxshilashga yordam beradigan iqtisodiyotning yangi tarmoqlariga bevosita yo‘l ochishi shubhasiz.

“Yashil o‘sish va global maqsadlar uchun hamkorlik-2030” Janubiy Koreyadagi sammitda Sh.M. Mirziyoyevning “Bugungi kunda ona tabiatning o‘zi

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

bizga yo‘llayotgan ogohlik qo‘ng‘irog‘iga beparvo bo‘lmasligimiz kerak. Afsuski, iqlim o‘zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Biz yashayotgan Markaziy Osiyoda so‘nggi 30 yilda o‘rtacha yillik harorat taxminan bir darajaga ko‘tarildi. Mamlakatimizdagi asosiy daryolarning xavzasi va biologik xilma-xillikning qisqarib borayotgani jiddiy xavotir uyg‘otmoqda. Bug‘lanish darajasini oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanishi muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Bugungi kunda yashil taraqqiyot borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada faol va samarali bo‘lishi kerakligini hech kim shubha qilmayapti. Boshqa choramiz ham yo‘q” [1]degan fikrlarni ta’kidlab o‘tdi.

Mustaqil O‘zbekistonimiz iqtisodi uchun “yashil” o‘tish yangi bosqich bo‘lganligi bois bu borada hali yetarlicha izlanishlar olib borilmagan. Mamlakatimiz “yashil” o‘tish sari qadam tashlamoqda, zero “yashil” o‘tish mustaqil jarayon emas, balki barqaror va inklyuziv bozor iqtisodiyotiga o‘tishning ajralmas qismidir. 2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o‘tish va «yashil» o‘sishni ta’minlash bo‘yicha harakatlar rejasiga (02.12.2022 yildagi PQ-436-son qaror bilan tasdiqlangan) muvofiq «yashil» turdagi faoliyatni tasniflas uchun Milliy «yashil» taksonomiyani ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Ushbu soha bo‘yicha mutaxassislarning fikricha, “yashil iqtisodiyot” an’anaviy “jigarrang iqtisodiyot”ga qaraganda qisqa muddatda YaIMning o‘sishini, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadning ortishini va ish bilan ta’minlanishni bir xil yoki undan yuqoriroq ko‘rsatkichda oshirishi mumkin. Shuni aytish joizki so‘nggi paytlarda o‘tkazilgan xalqaro munozaralar “yashil iqtisodiyot” tushunchasini aniq ishlab chiqish, uni barcha mamlakatlar manfaatlari nuqtai nazaridan amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni chuqur tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi yirik investitsiyalarni (yiliga YaIMning 2 foizigacha) talab qiladigan murakkab jarayon bo‘lib, iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlariga ta’sir qiladi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, “yashil iqtisodiyot” mintaqaviy rivojlanishni rag‘batlantiradi, ijtimoiy barqarorlikka ko‘maklashadi, “yashil iqtisodiyot” tarmoqlarida yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali iqtisodiy salohiyatni oshirishga erishish mumkin. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) prognozlariga ko‘ra, ishlab chiqarish va iste’mol qilishning zamonaviy usulida davom etilsa, 2050-yilga kelib, 2000-yil bilan solishtirilganda, o‘simlik va hayvonot dunyosining 61 foizdan 72 foizigacha yo‘qotiladi va tabiiy hududlar esa 7,5 mln. kv.m.ga qisqaradi. Agarda yangi iqtisodiy siyosat olib borilmasa, OECDning 2050-yilgi prognozlariga ko‘ra dunyoda energiya talabi 80% ga ortadi. Dunyo Mamlakatlar miqyosida tahlil qilinadigan bo‘lsa, Janubiy Afrika 15%, OECD yevropa mamlakatlarida talab 28% , Yaponiya 2,5%, Meksikaning energiya talabi 112% ortishi kutilmoqda. Barcha issiqxona gazlari emissiyasi 50%ga ortadi va havo ifloslanishini yomonlashtiradi. Dunyo shaharlarining ifloslanishi 2050-yilga kelib eng katta muammoga aylanadi, ichimlik suvlarining ifloslanishi va sanitariyaning yomonlashuvi yetakchilik qiladi. Bunday global xavflarni oldini olishda eng asosiy

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

e’tibor iqtisodiyotni “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, eko-innovatsiyalar hamda ekologik investitsiyalarni joriy etish kabi bir qancha chora-tadbirlar mavjud ekanligini ko‘rsatadi. Innovatsiyalar ekologik samaradorlik va iqtisodiy o‘sish uchun asosiy omil hisoblanadi. Hozirgi kunda mamlakat hukumati iqtisodiyotning barcha sohalarida yashil tamoyillarni joriy etish bo‘yicha faol siyosat olib bormoqda. Energiya samaradorligi va qayta tiklanadigan energiya manbalari asosiy va ustuvor yo‘nalishlar bo‘lib, energetika va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasi siyosat darajasiga chiqarilgan.

Natijalar va muhokama. Jahon banki ishtirokida «Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo‘llash» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi prezident qarori imzolandi. Unga muvofiq, 2030 yilgacha «yashil iqtisodiyot»ga o‘tish va «yashil o‘sish»ni ta’minlash dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, milliy iqtisodiyot, xususan, sanoatning kam uglerodli rivojlanishini ta’minlash maqsadida O‘zbekistonda «Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo‘llash» (iCRAFT) loyihasi amalga oshiriladi. Ushbu maqsadda Jahon banki 46,25 mln AQSh dollari miqdorida mablag‘ ajratadi.

Jahon banki tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra “Yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

✓qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish;
✓chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish;
✓suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish;
✓ “Toza”, barqaror “yashil” transportlarni rivojlantirish;
✓qishloq xo‘jaligida organik dehqonchilikni rivojlantirish;
✓uy-joy kommunal xo‘jaligida energiya samaradorligini oshirish;
✓ekotizimlarni saqlash va boshqaruv samaradorligini oshirish;
✓ “Yashil texnologiyalar”ni yaratish va sotish bozorlarini rivojlantirish.

Mutaxassislar ushbu sohalarning har birida «Yashil iqtisodiyot»ga o‘tish orqali jami qo‘shimcha yillik foydalarni hisoblashdi. Misol uchun, qayta tiklanuvchi energiya manbai sektorida kutilayotgan foyda 5 milliard dollardan oshadi. Shu bilan birga, «Yashillashtirish» siyosati qo‘shimcha «Yashil» ish bilan ta’minlashga olib keladi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, faqat qayta tiklanuvchi energiya sektorida 2020-yilgacha 175 mingta qo‘shimcha ish o‘rinlari va 2050-yilgacha 270 mingga yaqin ish o‘rinlari tashkil etilishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish kerakki O‘zbekiston o‘zining hozirgi rivojlanish modeli bo‘yicha o‘sish chegaralarini yengib o‘tish hamda iqlim va ekologiyadan xabardor bo‘lib borayotgan jahon bozorida iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlash yo‘lidagi noyob imkoniyatni yaxshi tushunadi. Ammo, yanada barqaror va “yashil” iqtisodiyotga aylanish uchun mamlakat mavjud ekologik muammolar va iqtisodiy o‘sishni sekinlashtiradigan boshqa xavf omillari ustida ishlashi kerak. Mustaqil O‘zbekistonda yuksak rivojlanishni ta’minlashda “yashil iqtisodiyot”ning rolini kuchaytirish borasida quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur:

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

1. Resurslardan va qayta tiklanuvchi resurslardan oqilona foydalanish.
2. Ekologiyaga yetkazilayotgan zararlar miqdorini kamaytirish va ekologiyani muhofaza qilish zarur.
3. Bular bilan birga energetika va yashil texnalogiyani rivojlantirishga katta e’tibor qaratish zarur. Bularni amalga oshirish uchun barchamiz birdek kurashishimiz va birdamlikda harakat qilishimiz zarur hisoblanadi. Birinchidan, aholini atrof-muhitning yomonlashuvi sabablari to‘g‘risida axborot bilan ta’minlashga qaratilgan loyihalarga ustuvor ahamiyat berish lozim. Ikkinchidan, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi sifatini oshirish darkor. Uchinchidan, “yashil” davlat xaridlari siyosatini olib borish orqali ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish va ishlab chiqarishda “yashil” texnologiyalardan foydalanishni rag‘batlantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. To‘rtinchidan, milliy iqtisodiyotning energiya salohiyatini oshirishda “yashil” texnologiyalardan samarali foydalanish kerak. Beshinchidan, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida “yashil” infratuzilmaga sarflanadigan davlat investitsiyalari hajmini oshirish lozim. Ushbu sanab o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali biz kelajagimiz uchun yanada taraqqiy etgan barqaror rivojlanish asosidagi iqtisodiyotni ta’minlashga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yashil o’sish va global maqsadlar uchun hamkorlik-2030” Janubiy Koreyadagi sammitda Sh.M.Mirziyoev so’zlagan nutqi
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanadarivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.// O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. –T., 2017. –B.39.
3. 2019-yil 4-oktabrdagi “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” Iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori
4. “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki, Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi, 2022-yil. O‘zbekistonda “Yashil” O‘sish va Iqlim O‘zgarishi bo‘yicha Siyosiy Muloqotlar turkumi: Ishlar to‘plami. Jahon banki: Washington D.C.”
5. Порфирьв Б.П. «Зеленая» экономика: реалии, перспективы и пределы роста. -М. Карнеги, 2013.
6. Yashil iqtisodiyot darslik /A.V.Vaxabov, SH.X.Xajibakiyev–Toshkent.: “Universitet”, 2020. -262 b.
11. The World Bank and the Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan. 2022. Towards a Greener Economy in Uzbekistan. ©World Bank.”

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek